



PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH – TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI (BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARI MISOLIDA)

Ismatova Shaxnoza Abdusalom qizi

Xalqaro Nordic Universitetining

"Ta'lismuassasalari boshqaruvi" fakulteti

2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15584193>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion ta'lismi texnologiyalarini qo'llash sharoitida pedagog kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishning dolzARB muammolariga bag'ishlangan. Ta'lismuassasasining innovatsion faoliyatida tadqiq qilinayotgan jarayonning metodologik tartibga soluvchisi sifatida texnologik yondashuv o'rGANIB chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion kompetentlik, pedagogning professionalligi, kasbiy rivojlanish, texnologik yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisi, innovatsiya, ta'lismifati, zamonaviy ta'lismi, strategik boshqaruvi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lismi sohasidagi ustuvor yo'naliishlardan biri ta'lismi maqsadlari va mazmunini global modernizatsiya qilishdir. Ushbu modernizatsiya samaradorligini oshirishning muhim sharti ta'lismi muassasalarida innovatsion faoliyatni kuchaytirishdan iborat. innovatsiyalar ta'lismi rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biriga aylanmoqda.

Hozirgi kunda har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qudratining kaliti zamonaviy texnologiyalardir. Bunda jamiyatning nafaqat ularni uzlusiz yaratish qobiliyati, balki ularni bozorga olib chiqish, tezda iste'molchilarga kerakli mahsulot va xizmatlarga aylantirish mahorati ham muhimdir. Ilmiy-texnik sohadagi e'tibor jarayondan natijaga, ya'ni texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi yakuniy o'zgarishlarga qaratilmoqda. Ta'lismi sohasida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, ta'lismi jarayonlarini texnologiyalashtirishga qaratilgan intilishlar, (innovatsion ta'lismi texnologiyalarini joriy etish, axborot texnologiyalaridan ommaviy foydalanish) va jamiyat tomonidan pedagogning kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablar (kasbiy faoliyatning yuqori darajasi, kommunikativ hamkorlik qobiliyatları, talabchanlik) zamonaviy olimlarning ta'lismi muassasasining innovatsion faoliyatini o'rganishlariga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizning ta'lismi tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ilg'or xorijiy ta'lismi tajribasini o'rganish, tahlil etish hamda ta'lismi muassasalari sharoitiga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab boshlang'ich fanlarini o'qitish, shu bilan birga, ta'lismi oluvchilarni ularning murakkab olamiga olib kirish va axborot madaniyatini shakllantirishga qobiliyatli o'qituvchilarni tayyorlash dolzARB masalalardan hisoblanadi. Ular o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilishi, o'qitishning metodik uslublariga ega bo'lishi va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi egallagan bo'lishi kerak.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari ko'p jihatdan ularning o'z faoliyatida yangi usullar, metodlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bilimlardan foydalanishga tayyorligi va ta'lismi samaradorligini oshirish uchun ularni o'z kasbiy tajribasi bilan uyg'unlashtirishiga bog'liqdir.

Ta'lismi jamiyat madaniyatini o'zlashtirish asosida ta'lismi oluvchilarda faoliyatning turli sohalarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlan-tirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta'lismi



maqsadini bunday tushunish esa, kompetentlik yondashuvni ro'yobga chiqarish uchun asos yaratadi.

Ilmiy manbalarda kompetentlikning quyidagi ta'rifini uchratish mumkin: kompetentlik – shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir.

Kompetentlik yondashuvning asosiy maqsadi ta'lim beruvchilarda bugungi axborotlashgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishga asos bo'la oladigan asosiy kompetensiyalar majmuasini shakllantirish va ularni rivojlantirishdan iborat.

Yangi avlod standartlarining asosiy maqsadi zamonaviy pedagogik imijini yaratishdir. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchining o'zi ta'limning ko'p masalalarida juda malakali bo'lishi kerak: maqsadlarni belgilash, ta'lim yo'nalishlarini loyihalashtirish, ma'lumotni izlash, tahlil qilish, o'zgartirish kiritish, qo'llash qobiliyatlari va hokazo. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish ta'lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Axborot kommunikatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish qobiliyatidir.

Fikrimizcha, axborot va kommunikatsion kompetentlik sohasida o'qituvchining funksional savodxonligi darajasi quyidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich ta'limni o'qitishni tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish usullariga ega bo'lish;
- o'qitish va rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish imkoniyatlarini bilish;
- o'rganilgan mavzuning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashda;
- o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qilishni tashkil etishda kompyuterni qo'llashni bilish;
- o'qitishning axborotli va an'anaviy texnologiyalarini optimal moslashtirishni bilish;

- o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llash va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, axborot-ta'lim muhiti – bu zaruriy psixologgi-pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati va axborot resursiga kirishining zaruriy ta'minotini taqdim etuvchi, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslanib qurilgan zamonaviy texnologiyalar va o'qitishning texnik vositalari majmuasini ta'minlovchi ko'p jihatli, yaxlit ijtimoiy-psixologik borliq. Qisqacha aytganda, axborot-ta'lim muhitini innovatsion axborot vositalari va resurslari tashkil etadi.

"Innovatsiya" tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslarning tadqiqotlarida paydo bo'lgan va bir madaniyatning ba'zi elementlarini boshqasiga kiritishni anglatgan. Uning bu ma'nosi etnografiyada hozirgacha saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi ilm sohasi - yangiliklar haqidagi fan shakllandi. Uning doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasidagi texnik yangiliklar qonuniyatları o'rganila boshlandi. Yangiliklar haqidagi fan - innovatsiya firmalarning yangi xizmatlar va g'oyalarni ishlab chiqish hamda joriy etish faoliyatidagi keskinlashgan ehtiyojlarini aks ettirish natijasida vujudga keldi. Innovatsiya, (inglizcha "Innovation" so'zidan) olingan bo'lib "yangilik" degan ma'noni anglatadi.

Innovatsion faoliyat (pedagogikada) "ijodiy faoliyat" yoki "fikrlash jarayonining yakuniy natijasi" - bu ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik amaliyotni joriy etish maqsadida o'quv jarayonini taqqoslash va o'rganish orqali oldingi tajribaga tayanadigan pedagogik faoliyatdir.

Zamonaviy pedagogika lug'atida "pedagogik innovatsiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pedagogik innovatsiya - pedagogik faoliyatga kiritilgan, ta'lim va tarbiya mazmuni hamda texnologiyasidagi o'zgarish bo'lib, ularning samaradorligini oshirishni maqsad qilgan yangilikdir".



Pedagogika fanlari doktori, didaktikaning umumiyligi muammolari laboratoriysi yetakchi ilmiy xodimi V.M. Klarin "innovatsiya" ta'rifiga quyidagi ma'noni qo'shadi: "Innovatsiya deganda nafaqat yangiliklar yaratish va tarqatish, balki ushbu yangiliklar bilan bog'liq bo'lgan faoliyat tarzi va fikrlash uslubidagi o'zgarishlar ham tushuniladi".

V.S.Lazarev ta'lismi muassasasining innovatsion faoliyatining vazifalariga yangiliklarni o'zlashtirish va joriy etish (yuqori sifatlari ta'lismi natijalariga erishishga ko'maklashuvchi ta'lismi shakllari, usullari, texnologiyalari), innovatsiyalarni ishlab chiqish (o'qitishning yangi usullari va yangi ta'lismi texnologiyalarini loyihalash), pedagogik tajribalar o'tkazish (yangi ta'lismi texnologiyalarini sinovdan o'tkazish), o'zining innovatsion sohada erishgan yutuqlarini keng ommaga yetkazish (pedagogik kengashlarda innovatsion yangiliklar taqdimotlarini o'tkazish, seminarlar tashkil etish va davra suhbatlarini uyuشتirish) kiradi deb ko'rsatib o'tgan.

Innovatsion faoliyat tushunchasi faqatgina o'quv jarayoniga yangi bilimlarni kiritishni anglatmaydi. Bu ta'lismi jarayoni ishtiroychilarini qiziqtirishi kerak bo'lgan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha katta ishdir. Odatda, bu vazifani ta'lismi muassasalari xodimlari (o'qituvchilar) bajaradilar. Ular ko'pincha amaliyotning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlik ehtiyoji bilan nazariy va tashkiliy asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtaсидagi muayyan ziddiyatlarga duch keladilar.

Bu yangi pedagogik faoliyatni joriy etish maqsadida o'quv jarayonini taqqoslash va o'rganish orqali oldingi tajribaga tayanadigan pedagogik faoliyatdir. O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirishga muayyan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar majmuasini amalga oshirish yordam beradi:

- innovatsion faoliyatga ijobjiy ishtiyoqni shakllantirish,
- innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidan foydalanish,
- o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida innovatsion faoliyat sohasidagi amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish,
- oliy ta'lismi o'qituvchilarini pedagogik innovatsiyalar sohasidagi reflektiv-baholash faoliyatiga jalg qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha shartlar yagona natijaga qaratilgan, shuningdek, ular mantiqan o'zaro bog'liq, shuning uchun biz ular kompleks ekanligini taxmin qilishimiz mumkin. Bu shartlarning nazariy asoslanishini keltiramiz.

Birinchi shart o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga ijobjiy ishtiyoqini shakllantirishni nazarda tutadi. Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligining motivatsion komponenti eng muhimlaridan biri hisoblanadi, chunki o'qituvchi ta'limga innovatsion jarayonlarning ahamiyatini shaxsan baholashi kerak. Ushbu shart pedagogda innovatsion jarayonlarga qiziqishni rivojlantirishga imkon beradi,

Shunday qilib, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga qiziqishini shakllantirish uchun nafaqat to'plangan, egallangan bilimlar va ularning hayotiy tajribasi darajasini, balki tavsiya etilgan yangiliklarni yanada to'liq va chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etuvchi yo'nalishni taklif etuvchi ta'lismi tashkilotining ichki muhitini ham hisobga olish kerak.

Ikkinci shart innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish uchun o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidan foydalanishni nazarda tutadi. Mazkur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitning nazariy asosi ta'lismi jarayonini tashkil etishga tizimli yondashuv hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash davrida o'qituvchilarning o'zlarida shaxsning kasbiy yo'nalganligi rivojlanadi. Bunga innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga ko'maklashuvchi tadbirlarni tashkil etish yordam beradi.

Uchinchi shart o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida innovatsion faoliyatga oid amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion faoliyat to'g'risidagi bilimlarni doimiy ravishda amaliyotda qo'llash orqali o'qituvchilar ushbu bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini egallaydilar. Aynan shu holatda ijodiy



fikrlash rivojlanadi, shuningdek, innovatsion faoliyatga ijodiy yondashuv shakllanadi. Innovatsion faoliyatga tayyorlikning nazariy komponenti pedagogda yangilikni joriy etishga tayyorlik, ijodiy faollik va innovatsiyalarni qabul qilish hissi mavjudligini nazarda tutadi.

To'rtinchi shart boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik innovatsiyalar sohasidagi reflektiv-baholash faoliyatiga jalb etishni amalga oshiradi. Ushbu shart bilish faoliyatini faollashtirish, o'qituvchilarda innovatsion faoliyatda o'z harakatlari, metod va usullarini tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

O'qituvchilarning innovatsion faoliyatga amaliy tayyorgarligi innovatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni adekvat tahlil qilish va hal etish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchilarning faolligini rag'batlantirish ta'lif tashkilotida innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sing o'qituvchisini kompetentligini baholashning asosiy mezonlari uning pedagogik mahorati darajasiga bog'liq bo'lib, pedagogik faoliyatning maqsadga muvofiqligi, ijodiyligi, texnologik samaradorligi, optimalligi va unumidorligi bilan belgilanadi. Pedagogning pedagogik mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, uning kasbiy kompetentligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Pedagogning texnologik kompetentligi uning kasbiy mahorat darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u ta'lif oluvchining ta'lif faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy texnika, metod va texnologiyalar bilan belgilanadi.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda hozirgi kunda ta'lif sifatini oshirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri axborot texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan qo'shimcha ta'lmdir.

Demak, shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, pedagogning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, ta'lif faoliyatini texnologik ta'minlash va shu bilan birga ta'lif muassasasida innovatsion faoliyatni samarali va to'g'ri tashkil etish bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lif jarayonlari sifatini, balki pedagogning innovatsion faoliyati natijalarini ham yaxshilashga yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-tonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lif dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-tonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-tonli farmoni.
4. Yeldasheva G., Karimova G. Ta'lif-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi // O'quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU 2018. 121 b.
5. Angelovski, K. Uchitelya i innovatsii [Tekst]/ K. Angelovski. – M.: Prosvyatajenie, 1991. – 159 s.
6. Belya, K.Yu. Innovatsionnaya deyatelnost v DOU. Metodicheskoe posobie[Tekst] / K.Yu. Belya. – M.: Tvorcheskiy sentr «Sfera», 2005. – 64 s.
7. Sayidahmedov N.S, Abduraximov S.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya: monografiya.–T., A.Beruniy nomli TDTU qoshidagi OIPI, 2009. –B. 327.
8. Nishonaliev U.N, Tolipov O'.Q, Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lif pedagogikasi. O'quv qo'llanma.– Toshkent: TDPU, 2007.–B. 260.



9. Belya, K.Yu. Innovatsionnaya deyatelnost v DOYu. Metodicheskoe posobie [Tekst] / K.Yu. Belya. - M.: Tvorcheskiy sentr «Sfera» 2005. -64 b.
10. Bogdanova, I. A. Traditsii i innovatsii: K 100-letiyu Petrozavoda. ped. kolledja No1.[Tekst] / I. A. Bogdanova // Sred.prof. obrazovanie. -2003. No 3. - S. 29-30.